



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№4 (814), 2026-yil 26-fevral

facebook.com/nkmkofficialt.me/ngmkofficialinstagram.com/nkmk.officialwww.ngmk.uz

■ Dolzarb mavzu

SANOAT KOOPERATSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHILAR BILAN HAMKORLIK

iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim omili

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida “NKMK o‘z quvvatlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining rivojlanish bosqichlari va kelgusidagi rejalar” mavzusida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Kombinat bosh direktori Q.Sanaqulov raisligida o‘tgan mazkur tadbirda raqobatbardosh hamda import o‘rnini bosuvchi sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada chuqurlashtirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, mavjud muammolarni hal etishda oliy ta’lim muassasalari olimlarini jalb qilish, shuningdek, mahalliy korxonalarni “shatakka olish” tizimi asosida qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Yig‘ilishda NKMK mutaxassislari, viloyatda faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalar rahbarlari hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari ishtirok etdi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ehtiyoj yuqori bo‘lgan ehtiyoj qismlar va uskunalar mahalliyashtirish darajasini oshirish, innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etish hamda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Yig‘ilishda yangi mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish, importni maqbullashtirish va qisqartirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish va mahsulot turlarini ko‘paytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish kabi muhim masalalar muhokama etildi.

Ma’lumki, mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha kombinat jamoasi oldiga aniq vazifalar qo‘yilgan. Keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar importni sezilarli darajada qisqartirish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga olib keldi. Natijada, kombinat respublika ishlab chiqaruvchilari orasida bu yo‘nalishda lokomotiv

korxonaga aylandi. Kombinat mahalliy korxonalarni shatakka olish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba maydoniga aylanganligi, ularning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bunga misol bo‘layotganligi alohida qayd etib o‘tildi. Xususan, keyingi yillarda kombinat tomonidan shatakka olingan “Gidro Stanko Servis” MChJ korxonasida 2019-yilda 35 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 695 milliard so‘mga yetdi va iqtisodiy o‘shish 20 barobarni tashkil etdi. Korxonada 2019-yilda 20 turdagi mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, o‘tgan yilda 300 turdagi mahsulot ishlab chiqarildi va o‘shish 15 barobarga yetdi. Natijada birgina 2025-yilda 463 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Ayni paytda mazkur korxona yirik ishlab chiqarish korxonasiga aylandi. Bu ko‘rsatkichlarni boshqa mahalliy korxonalar misolida ham ko‘rish mumkin.

NKMK hamda mazkur korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasi va texnologik hamkorlik doirasida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni o‘zlashtirish hisobiga yiliga o‘rtacha 60 million dollar valuta tejalamoqda.

Yig‘ilishda korxonalar misolida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish



va mahalliyashtirilgan bunday mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish yuzasidan hali ishga solinmagan imkoniyatlar borligi xususida fikr-mulohazalar bildirildi. Bu borada kombinatda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ham manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilishda sohaga ilmiy tadqiqot ishlarini yanada keng joriy etish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikni kuchaytirish ishlariga bugungi

kunning ustuvor vazifalardan biri sifatida alohida to‘xtalib o‘tiladi va bu boradagi aniq vazifalar belgilab olindi. Jumladan, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlikda “NKMK” AJda elektr energiyasi sarfini kamaytirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish topshirig‘i berildi.

Keyingi yillarda respublikamizda mahalliy korxonalarni “shatakka olish” mexanizmi doirasida texnologik va innovatsion hamkorlik rivojlanib bormoqda. Respublikada birinchilardan bo‘lib kombinat tomonidan amaliyotga joriy qilingan bu mexanizm har tomonlama o‘zini oqlamoqda. Birgina, 2025-yilda shatakka olingan 43 ta korxona-

da 783 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 2,6 barobarga oshganligi ta’kidlab o‘tildi.

Dolzarb masala muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish yakunida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoat kooperatsiyasi va bu boradagi ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi va mas’ullarga topshiriqlar berildi.

Ulug‘bek SANAQULOV,
“NKMK” AJ Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo‘limi boshlig‘i.

■ Xabarlar, yangiliklar

“ENG YAXSHI KITOBXON”

tanlovining final bosqichida g‘oliblar taqdirlandi

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma’muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan ishchi-xodimlar o‘rtasida tashkil etilgan “Eng yaxshi kitobxon” tanlovining final bosqichi “Farhod” madaniyat saroyida o‘tkazilib, g‘oliblar munosib rag‘batlantirildi.



Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishchi-xodimlari o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularning kitob mutolaasiga qiziqishi va intellektual salohiyatini yanada oshirish maqsadida kombinat bo‘linmalari va korxonalari “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi o‘tgan yilning avgust-dekabr oylari davomida uch bosqichda o‘tkazildi. Ularda ming nafarga yaqin kitobxonlar ishtirok etdi.

Tadbirlarda kasaba uyushmasi vakillari, ma’naviyat targ‘ibotchilari va yoshlar yetakchilari tomonidan ishchi-xodimlarga o‘zbek va jahon adabiyotining sara asarlaridan namunalar taqdim etildi. Xususan, Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani, Rashod Nuri Gunteginning “Choliqushi” romani, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani, Rasul Hamzatovning “Me-nining Dog‘istonim” asari hamda Mahmudxo‘ja Beh-budiyning “Padarkush” romani yuzlab ishtirokchilar tomonidan sevil mutolaa qilindi.

— Bu ishlarning hammasi avvalo yoshlar, ishchi-xodimlar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Tanlovning yakuniy bosqichida kombinatimizning joylardagi bo‘linmalaridan tashrif buyurgan 60 nafarga yaqin eng

faol kitobxon bellashdi, — deydi O‘zbekiston Qahramoni Farhod Soyibov.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Markaziy kon boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodi chilangari Sherbek Shaymatov faxrli 1-o‘ringa sazovor bo‘ldi. “Qizilqum” kon boshqarmasi xodimi Mavluda Tosheva 2-o‘rinni, Shimoliy kon boshqarmasi 3-gidrometallurgiya zavodi chilangari Zavqiddin Imomov esa 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

— Kitob o‘qish ham mahorat, ham odatdir. O‘zlashtirilgan bir mahorat sifatida, mutolaa dastlab mashaqqatli bo‘ladi, ammo so‘z boyligimiz ortib, muhokama qilingan masalalar bo‘yicha bilimlarni shakllantirishimiz va ko‘nikmaga aylantirishimiz bilan bu mashaqqat osonlashadi. Kitob o‘qish inson uchun doimiy ehtiyojga aylanadi va natijada kitobxonlar ko‘proq mutolaa qilishadi, — deydi tanlov g‘olibi, 2-gidrometallurgiya zavodi chilangari Sh.Shaymatov.

G‘oliblar va nominatsiyalarda faol qatnashgan ishtirokchilar maxsus statuetka hamda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Azamat ZARIPOV.

Joriy yilda ilk bor Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma’muriyati hamda kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Kombinatning ko‘ngil she’riyati – 2026” ko‘rik-tanlovi kombinat tizimidagi ishchi-xodimlar o‘rtasida katta qiziqish bilan kutib olindi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ushbu ma’naviy-ma’rifiy tadbir she’riyat va kitobxonlikka bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ishchi-xodimlarni ulug‘ ajdodimizning boy adabiy merosi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qildi.



SHE’RIYAT BAYRAMI

Tanlovda NKMK, “Navoiyuran” DK hamda “NKMK jamg‘armasi” tizimidagi bo‘linma va korxonalarda faoliyat yuritayotgan 20 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan ishchi-xodimlar ishtirok etib, she’riy asarlar hamda g‘azallarni jonli ijroda yoddan o‘qish orqali o‘z mahoratlarni namoyish etdilar. Ishtirokchilar sahna madaniyati, nutq ravonligi va aktyorlik qobiliyatlari bilan to-moshabinlar e’tiborini qozondilar.

Ikki bosqichda tashkil etilgan tanlov yuzdan ortiq she’riyat ixlosmandlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtirdi. Birinchi bosqich saralash-laridan muvaffaqiyatli o‘tgan 16 nafar ishtirokchi final yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

Tadbirda elimiz ardog‘idagi ijodkorlar Xosiyat Bobomurodova, Bobur Bobomurod hamda Ibrohim Jivanov ishtirok etib, tanlov nufuzini yanada oshirdi. Final bosqichi oldidan mehmon shoirlar ishtirokida she’riyat ixlosmandlari bilan samimiy uchrashuv tashkil etilib, adabiyot va ijodning inson ma’naviy hayotidagi o‘rni haqida fikr almashildi.

Finalda ishtirokchilar ikki shart asosida bel-lashdilar. “Sadoqat bilan...” deb nomlangan

birinchi bosqichda Vatan, oila, ota-ona hamda kasbga muhabbat va sadoqatni ulug‘lovchi she’riy asarlar ijro etildi. “Hazrat g‘azallari qalblarda mangu yashar” nomli ikkinchi shart esa buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlanib, unda ishtirokchilar adibning g‘azallari-dan namunalarni mahorat bilan taqdim etdilar.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti yoshlar yetakchisi Dilshod Muhammadiev faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. NKMK Axborot-kommuni-katsiya texnologiyalari boshqarmasi xodimi Na-fisa Ahmedova ikkinchi, Shimoliy kon boshqarmasi xodimi Nilufar Mo‘yidinova esa uchinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi.

— Yer qo‘rining yuragini sug‘urib, og‘ir mehnatning zalvorini yelkasida ko‘tarib kelayotgan konchi-pahlavonlardan tortib, murakkab me-xanizmlar orasida hayot tomirini tutib turgan elektromexaniklargacha bo‘lgan kasb egalari qalbida buyuk bobomiz Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan cheksiz muhabbatni ko‘rib, she’riyat-ga oshufta ana shunday insonlar oldida bosh egib, chuqur ta’zim bajo qilaman, — deydi xalqi-

mizning sevimli shoirasi, hakamlar hay’ati raisi Xosiyat Bobomurodova. — Chunki tog‘ bag‘rini teshib rizq izlayotgan bu fidoyi insonlarning yuragida ham nazmga oshno, so‘z sehriga chanqoq nozik bir olam yashayotganini ko‘rish she’riyatning qudrati naqadar beqiyos ekanini yana bir bor namoyon etadi. Mehnat bilan qotgan qo‘llar, aslida, g‘azal misralarini e’zozlaydigan qalb egasi ekanini anglash esa har qanday ijodkor uchun eng yuksak e’tirofdir.

“Kombinatning ko‘ngil she’riyati – 2026” ko‘rik-tanlovi nafaqat iste’dodlarni kashf etdi, balki qalblarni birlashtirgan, ma’naviyatni yuksaltirgan chinakam adabiyot bayramiga aylandi. Bu kabi tadbirlar ishchi-xodimlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda yuksak estetik didni shakllantirish hamda milliy adabiyotimizga bo‘lgan hurmatni yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Eng muhimi, ulug‘ ajdodlarimiz merosini e’zozlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Sanjar QURBONOV.

■ Davlat dasturi – amalda!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida barcha yo'nalishlardagi strategik vazifalar belgilab berildi. Ayniqsa, joriy yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yili deb e'lon qilingani yangi tashabbuslarni boshlab berdi.

MAQSAD VA VAZIFALAR ANIQ

Bu ishlarni hayotga izchil tadbiq etish maqsadida, yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni islohotlarni jadallashtirish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'ldi. Jumladan, 6 ta bob, 100 ta maqsad va 337 ta banddan iborat mazkur davlat dasturidan Yangi O'zbekistonni joriy va yaqin yillarda rivojlantirish istiqbollari o'rin olgan. Dasturda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga ham taalluqli uchta asosiy band va boshqa vazifalar ko'zda tutilgan.

Farmonning 6-iloa 49-maqsad 118-bandiga ko'ra, "Qoqpatas" va "Dovg'iztov" oltin konlarida ma'dan qazib olish. (III navbati) investitsiya loyihasini amalga oshirish, jumladan, investitsiya loyihasi doirasida asbob-uskunalar va tog'-kon transport uskunalarini xarid qilish va yetkazib berish, tog'-kon qurilish ishlarini amalga oshirish, chiqindi omborini kengaytirish, filtrlash, quritish va yoqish sexlari, bioksidlash sexi qurilishini yakunlash vazifasi topshirilgan. Bu loyihaning tadbiq etilishi ishlab chiqarish sur'atini yanada oshirish imkonini yaratadi.

Farmonning 6-iloa 53-maqsad 157-bandida esa aviatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish loyihasi doirasida Zarafshon aerodromini rekonstruk-

siya qilishga kombinat ham mas'ul etib belgilangan. Bu ham, o'z navbatida, konchilar maskani bo'lgan Zarafshon shahar va yaqin hududlar aholisiga qulayliklarni tuhfa etadi.

Yurtboshimizning Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining joriy yilning 23-fevraldagi buyrug'i asosida 33 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Jumladan, ushbu dasturdan sohani rivojlantirishdan tashqari, ijtimoiy sohaga oid bo'lgan "Davlat – xalq xizmatchisi" tamoyili asosida jismoniy va yuridik shaxslar qabullari va sayyor qabullar o'tkazish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari hamda gender tenglikni ta'minlash, munosib ish va yashash sharoitlarini yaratish, rahbar-xodimlarning malakasini oshirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, "O'zbekiston bo'y-lab sayohat qili!" loyihasini amalga oshirish va boshqa muhim yo'nalishlar o'rin olgan.

Bir so'z bilan aytganda, marra va vazifalar aniq. Ularni izchil amalga oshirish uchun har bir mas'ul topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati bu borada shakllangan tajriba, qat'iy intizom mavjud.

Asliddin RO'ZIYEV,
Ma'naviyat va ma'rifat markazi
mutaxassisi.

■ Xushxabar

Yaqinda Navoiy kon-metallurgiya kombinati "Gender tenglik faoli" respublika milliy tanlovida "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol respublika tashkiloti" nominatsiyasi g'olibi bo'lgani ko'pming kishilik jamoamizga cheksiz quvunch bag'ishladi. Bu, albatta, korxonamiz tomonidan olib borilayotgan ishlar, xotin-qizlarimizga bo'lgan e'tiborning munosib tarzdgagi e'tirofidir.

E'TIBOR VA E'TIROF NAMUNASI



Yangi O'zbekistonda muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarimizning xalqaro miqyosda va jamiyatdagi obro'-e'tiborini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, g'amxo'rlik ko'rsatish yo'lidagi borilayotgan ishlar ularning farovon, baxtli-saodatli umr kechirishlari, hayotdan rozi bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, mo'tabar onalar, dilbar xotin-qizlarimizni har doim go'zallik, mehr-sadoqatga qiyoslaymiz. Bu – chin haqiqat. Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lgan bu ulug' zotlar mana shunday yuksak ta'rif, ehtiromga munosibdir. Ularni qancha ulug'lasak, shuncha kam. Chunki, biz uchun chekkan zahmatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Dilbar ayollarimiz borligi uchun umrimiz mazmunli, xonadonlarimiz fayzli.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham olti ming nafardan ziyod xotin-qizlar faoliyat ko'rsatib, ularni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Gender tenglik va inklyuzivlik xizmati, tarkibiy bo'linmalarda faoliyat olib borayotgan Ayollar kengashlari

bu ishlarni ro'yobga chiqarishda tashabbuskor bo'lishayotir.

Shuni faxr bilan ta'kidlash joizki, turli kasblarda ishlayotgan xotin-qizlarimiz jamoa bilan bir safda kombinat yutuqlariga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ular orasida 269 nafar rahbar ayollar, 40 nafarga yaqin davlat mukofoti sohiblari borligi bizni mamnun etadi.

Xotin-qizlarimiz, ularning ish va yashash sharoitlarini yaxshilash doimiy e'tiborda. Buning uchun dam olish maskanlari, oromgohlar, madaniyat uylari, zamonaviy sport inshootlari, kutubxonalar va boshqa ijtimoiy obyektlar ishchi-xizmatchilarimiz va ular farzandlari ixtiyoriga berilgan.

Bir so'z bilan aytganda, hali oldinda reja va maqsadlarimiz ulkan. Korxonada gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarimiz mehnati, iste'dodi va yutuqlarini rag'batlantirib borish asosiy maqsadimiz bo'lib qolaveradi. Bu, kelajakda yangidan-yangi muvaffaqiyatlar keltirishi tabiiy.

Nigora AMANOVA,
"NKKM" AJ Gender tenglik va
inklyuzivlik xizmati bosh mutaxassisi.

■ "Navoiyuran" davlat korxonasida

YUKSAK MAQSADLI REJALAR BELGILANDI

"Navoiyuran" davlat korxonasida bosh direktor Djmal Fayzullayev rahbarligida 2025-yilda uran ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining bajarilishi, erishilgan natijalar va mavjud muammolar hamda 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Bosh direktor o'z nutqida korxonaning o'tgan yilgi faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha aniq raqamlar tahliliga asoslangan natijalarga to'xtaldi hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmaganligini ta'kidlandi.

"Biz ishlab chiqarayotgan uran mahsuloti – Vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, jahonda o'zining munosib o'rimga ega bo'lishi, xalqimizning ertaga emas, bugun munosib hayot kechirishi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mana shu haqiqatni chuqur his etib, barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz", – dedi korxona rahbari o'z so'zida.

O'tgan hisobot davrida uran ishlab chiqarish, uran geologiyasini rivojlantirish, yangi konlarni aniqlash va zaxiralarni o'stirish yo'nalishlarida olib borilayotgan ishlar yuksak baholandi.

Djmal Fayzullayev 2025-yilning asosiy ko'rsatkichlariga to'xtalar ekan, hisobot davrida 14,3 trillion so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati 134,5 foizni tashkil etganini, texnologik burg'ilash ishlari 227,3 foizga o'sganini, mahsuldor eritmalarni qayta ishlash hajmining o'sish sur'ati bilan 135,3 foizga, eksport hajmi ko'rsatkichlari 110,3 foizga bajarilganini, burg'ilash ishlari hajmi 5,4 million metni tashkil etganini aytib o'tdi.

Shuningdek, investitsiya dasturi loyihalari 118,5 foizga bajarilib, 160 million dollar kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, natijada 306 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Mahalliyashtirish dasturidagi loyihalar doirasida 121,9 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, importni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari o'sish sur'ati 207,7 foizni tashkil etdi. Tannarxni kamaytirishda 645,5 milliard so'm mablag' iqtisod qilinishi kutilmoqda. Korxona tomonidan budjetga 5,6 trillion so'm to'lovlar amalga oshirildi.

Yig'ilishning asosiy qismida uran ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ularni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi muhokama etildi. Bosh mu-



handis Anvarjon Saparov 2025-yilda uran ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining bajarilishi, erishilgan natijalar va mavjud muammolar hamda 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalarga qaratilgan aniq takliflarini bildirdi.

Yig'ilishda mahsulot tannarxini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, investitsion loyihalarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi.

Xususan, moddiy-texnik ta'minot xarajatlarini maqbullashtirish, tejamkor ishlab chiqarish va me'yoralash tamoyillarini joriy etish, resurslardan foydalanishda suiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik uchun ichki nazorat va komplayens tizimini kuchaytirish, yordamchi funktsiya va xizmatlarni outsorsingga topshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish va boshqaruv operatsiyalarini avtomatlashtirish, tashkiliy tuzilma va kadrlar sonini maqbullashtirish, xodimlar tashabbuslarini rag'batlantirish,

energiya auditi o'tkazish orqali energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish lozimligi qayd etildi.

Shuningdek, korxonada kadrlar salohiyatini oshirish borasida ham bir qator chora-tadbirlarni belgilab olish zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun

yangi burg'ilash brigadalarini shakllantirish va mavjudlarining malakalarini oshirish uchun burg'ilash uskunalarini boshqaruvchi mashinist va mashinist yordamchisi kasblari bo'yicha xodimlarni tanlash va tayyorlash yuzasidan mas'ullarga qat'iy topshiriqlar berildi.

Yig'ilish yakunida korxona bo'linmalari uchun ishlab chiqarish hajmini oshirish, texnologik quduqlar sifatini yaxshilash, geotexnologik konlarning tarkibini qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etish, burg'ilash va geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

Vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish "Navoiyuran" davlat korxonasining joriy yil davomida barqaror faoliyatini ta'minlash va yillik maqsadli ko'rsatkichlarga to'liq erishish uchun muhim asos bo'lishi ta'kidlandi. Yig'ilish tanqidiy va tahliliy ruhda o'tdi.

"Navoiyuran" DK PR xizmati.

■ Xabar

YANGI TA'LIM MASKANI – IMKONIYATLAR KALITI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o'rtasida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, muhandis kadrlarni tayyorlash, "Kasb egasi" dual ta'lim tizimi asosida talabalar amaliyotini olib borish, bitiruvchilarni kombinat bo'linmalarida ishga joylashtirish bo'yicha mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda "Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan bandler ijrosini ta'minlash maqsadida,



2025-2026-o'quv yilidan boshlab Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining Zarafshon fakulteti tashkil etildi. Joriy yilning 11 fevral kuni Zarafshon shahrida mazkur fakultetning yangi binosi foydalanishga topshirildi.

– Zarafshon fakultetida ta'lim jarayoni dual tizim asosida konchilik ishi, metallurgiya, konchilik elektr mexanikasi, texnologik mashinalar va jihozlar yo'nalishlarida tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilmoqda. Fakultetimizda universitetning yuqori kurslarida o'qiyotgan, Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlarida doimiy yashaydigan 500 nafardan ortiq talaba ta'lim olib, mazkur hududlarda joylashgan sanoat korxonalari, shu jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalarida ishlab chiqarish va bitiruv ishi oldi amaliyotlarini o'taydi. Bundan behad mamnun talaba yoshlarimiz kelgusida yaxshi mutaxassis bo'lib chiqishga intilishmoqda, – deydi NDKTU Zarafshon fakulteti dekanı Nurbek Polvonov.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va Zarafshon shahar hokimligi hamkorligida fakultetning binosi qayta ta'mirlanib, o'quv xonalarlari kerakli jihozlar, kompyuter texnikasi va o'quv materiallari bilan ta'minlandi. Yangi ta'lim muassasasi Zarafshon, Uchquduq va Tomdi aholisi uchun oliy ta'lim qamrovini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aziza IRISOVA.

■ Publitsistika

Yaqinda do'stim Sohibjon Mo'minov bilan ota qishlog'i – Nurobodning Jomiga yo'l oldik. “Kettikcha – kettik”, deya olis Nurobodga ham etib kelganimizni bilmay qoldik. Nurbuloqda “qo'noqlagan” bo'ldik. “Kislovodsk” sanatoriysining mashhur suvidan ham minerallarga boy suvidan to'yib simirdik. Rodonli issiq suvidan tanamizni yayratdik. “Qoraqo'rsak” zotli qo'y go'shtidan tayyorlangan “dagana”sidan tanovul qildik. Ajdodlari haftada bir kun dovul sadolari ostida harb ishi bilan mashg'ul bo'lgan Nayman eli oqsoqollari bilan qo'r to'kkan bo'ldik. Hatto boridan do'mbrasini ziyod ko'rguvchi Shavkat baxshi Bobomurod termalariga quloq osdik. Shundan so'ng Jomga otlandik.



UMIDNI YO'LDOSH BILGAN NUROBODLIKLAR

UMID BOR JOYDA ISHONCH BO'LADI

Nuroboddan 40-45 kilometrlar chaması janubiy-g'arb tomon yursangiz, Jom qishlog'iga yetib borasiz. Jom Zarafshon tog' tizmasidagi tog'lar bag'ridagi maftunkor qishloq. Samarqand viloyati ma'muriy markazidan olis joylashgan bo'lsada, yurtimizning deyarli barcha maskanlarida turli sohalarda ishlovchi ko'plab ziyoilarni tarbiyalagan, kundan – kunga go'zallashib, farovonlashib borayotgan qishloq ekan.

Adib va arbob Murod Muhammad Do'st, soya o'simligining 5 ta, zaytunning 2 ta navini yaratgan olim Dilorom Yormatova, tojik adabiy til normasi-ni yaratishda ishtirok etgan tilshunos olim Obro'y Eshmurodov, hikoyanavis va shoir Shodiyor Hazrat, ustoz jurnalist Abdurasul Sattorov, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Elmurod Xoliqulov, O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a'zosi, “Shuhrat” medali sohibi, morboz Alisher Yormatov singari qanchadan - qancha elparvar insonlar chiqqan bu qishloqdan. Mehrlı – oqibatli, hamiyatli, ziyoli, el - yurt korıga yaragan va yarayotgan...

Ayni qish pallasi bo'lsada quyosh zarrin nurlarini sochadi. Ayniqsa, u Jom tog'larining betkayligiga “tirsagi”ni tirab turganida bizga juda yaqin ekanini his etamiz.

Jom – qishda qorli do'ngliklari, darayu qiyaliklarda teraklari viqor bilan osmonga bo'y cho'zgan go'zal tabiati, zilol suvlari, ayniqsa, mehmon-do'st, ahil va samimiy odamlari bilan yanada ulug'vor tuyuladi.

– Avval Eshturdi boboning xonadoniga bir kirib o'tamiz, – deydi Sohibjon. – Nuroniy kishi, ma'rifatli, piru badavlat otaxon.

Ayoz mahal emasmi, yalang'och bog' oralab paxsalik uyga kirib bordik. Odmigina xonalarining birida qimtinibgina qo'nim topdik. Ko'p hayallamay, boshidagi sur telpagi yuziga salobat bergan, tabassumi, nigohi qa'ridagi samimiylik suhbatga ishtiyuqmandligidan darak berib turgan 80 yoshlar chamasidagi kishi eshik hatlab kirdi hamda salom-alikdan so'ng poygakda cho'kkaladi va o'z shevasida gap boshladi.

– Men bir tovlıq agronomman, hol so'rab kelib-siz, boshim ko'klarga jetdi, – kantarinlik va sokinlik bilan so'z ochadi otaxon. – Tinich va osoyishta kunlardan bahramand bo'lib, shu joshda jurt va Jurtboshining, sizlarning ham duoyingizni qilib juribbiz. Shu kunlarga'a jetkazg'ana shukr...

Samarqandning olis qishlog'ida umrguzaronlik qilayotgan keksa otaxonning ilmu ziyosi, dunyoqarashi, tafakkuri qalbmizdagi hayratni alangalatdi. Bobo Jom qishlog'ining kelib chiqishi, uning nomi qanday ma'no kasb etishi borasida ham to'xtaldi:

– Qishloqning ming jildan ortiq tarixi bor. Jom so'zi qadimg'i orxiv oqo'zlarida keltirilishicha, Yam bo'lib, puchta, olaqa bo'limi degan ma'noni berarkan. O'zga muzofotdan kelib ketayotgan choparlar shu jerda chorçhag'ın jılqılarını boshqasi bilan olmashtirib, jo'lini davom ettirg'an. Tur-

li tolıqınlarğa ko'ra, Yam, Jamg'a aylanib, oxirgi Jom ko'rinishini og'an.

Asli agronom Eshturdi ota Rahimov mumtoz adabiyot bilimdoni ham ekan, u kishining ko'plab ruboiylarni yod aytishi va so'zma-so'z shahr keltirishi bir hayratimizga o'n hayrat qo'shdi.

Jom Omondara tepaligidan shappatdek ko'rinadi. Bir-biriga yelka tutgan hovlisiz uylar, bir bosh uzumdek ko'zga tashlanadigan eski qishloq ajib manzara kasb etadi.

Aholi ko'proq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Qishloq ko'chalarini aylanar ekanmiz, zamonaviy ko'rinishdagi uy-joylar barpo etilayotganiga ko'zimiz tushadi. Eng asosiysi, jomliklarning barchasi mehnatsevar, tadbirkorlikni yaxshi o'zlashtirgan, kasbu korni yaxshi egallagan – temirchisi ham, ta'mirchisi ham, duradgoru quruvchisi ham, mol dalolıyu olib-sotari



ham o'zlaridan. Hamma bir-biriga tayanch, el ishi – hasharda hamisha faol. Jomliklarning bir-biriga o'zaro ishonchi, mehr-oqibati bizni hayratlantirdi. Qo'shnilar o'r'tasida devor yo'qligi, biror xonadonda darvoza o'rnatilmagani diqqatimizni tordı.

– Shunday ko'rkam koshonalarini qurgan aholi nega hovlisini devor bilan o'ramagan?

Eshturdi ota esa miyig'ida kulib qo'yadi: – Ojablanmang, jomliklarning bir-biriga ishonchi mahkam. Molimiz ham, jonimiz ham bir. Shunday ekan, devor qurib, o'rtag'a olapishak oralashtirishga hojat jo'q. Oxir, inoqlik ishonch ustida qurilmaydimi?!

Yana atrofga, tabiat go'zalligiga mahliyo bo'lamiz. Fevral quyoshi charaqlab tursada, Chiroqchi tomondan esayotgan ayoz, ızg'ırıq shamol chor tarafga yugurib, jonni aচিতadi. Shul sabab yo'l bo'yidagi uylardan biriga to'xtab, janchimichdan tatib ko'rishga chog'lanamiz. Sariq yog' bilan



epkini kirib keldi, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish jadal rivojlandi, sanoat korxonalari, to'yxona, bozor, zamonaviy qiyofadagi do'konlar soni ortdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan sanoatni rivojlantirish loyihalari Nurobodni ham chetlab o'tmagan. Bu yerda ayni vaqtda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Nurobod ta'mirlash-mexanika zavodi tashkil etildi. Ta'riflarga ko'ra, ushbu loyiha mahalliy lashtirish dasturi bilan ajralib turadi.

Zavodda mehnat ertalabki soat 8.00 dan boshlanadi. Keng va yorug' sexlarda o'z kasbining mohir ustalari mas'uliyatni his qilgan holda kundalik vazifalarini sidqidildan bajarmoqdalar.

Bu yerda “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” tovar belgisi ostidagi tog'-kon va geologiya sanoatida foydalanishga mo'ljallangan qudratli texnikalarning ehtiyot qismlari va uskunalar tayyorlanmoqda. Korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga buyurtmalar tobora oshmoqda. Korxona direktori Abdurasul Do'smurodovning ta'kidlashicha, mazkur korxonada 2025-yilda 25 turdagi 16 ming donadan ortiq zamonaviy, raqobatbardosh, import o'rni bosuvchi uskuna va ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi.

Joriy yil boshida 14 turdagi 244 dona tog'-kon uskunaları va ehtiyot qismlari tayyorlandi. Buyurtmalar o'z vaqtida buyurtmachi korxonalarga sifatli tarzda yetkazilmoqda.

Korxonada texnika qismlarini yig'ish jarayonlarini belgilangan talab darajasida bajarayotgan mutaxassislar, ishchilarning o'z kasbining ustasi ekanligiga, mahoratiga amin bo'lasiz. Uskuna va ehtiyot qismlarning har bir detali aniq o'lchamda yasalishi va ta'mirlanishi uning bexato, uzoq va sifatli ishlashini ta'minlaydi.

NUROBOD

SANOATLASHMOQDA

Asosan chorvachilik, lalmi dehqonchilikka ixtisoslashgan Nurobod tumani, bir paytlar hukumat e'tiboridan chetda qolgan, “aravasi ni o'zi tortgan” nurobodliklar hayotiga keyingi yillarda taraqqiyot

– Kasbimiz nazariy bilimlarni hamda o'ziga xos tajribani talab etadi. Biz ishlab chiqarayotgan texnika vositalarining ehtiyot qismlari va uskunaları kon-metallurgiya sanoati korxonalari, qurilish inshootlari uchun nihoyatda zarur. Texnik soz texnikalar konchilarning mehnatini yengillashtiradi, – deydi soha mutaxassisi Mirzohid Barotov. – Hamkasblarimning barchasi bu haqiqatni yaxshi bilishadi. Biz shunday sanoat korxonasida faoliyat yuritayotganimizdan faxrlanamiz.

Korxona sexlarida turli kasb-hunar kollejlari-ni tugallagan o'n sakkiz nafar xotin-qiz mehnat qilmoqda. Ularning to'qqiz nafari Navoiy mashinasozlik zavodida soha bo'yicha malakalarini oshirib keldilar.

– Ayni paytda korxonamizda 154 nafar xodim mehnat qilmoqda. Shunisi quvonarliki, yoshlarimiz kasb sirlarini ustozlaridan o'rganib kelishmoqda, – dedi korxona bosh muhandisi Kamol Azimov. – Korxona sexlarida yangi tur mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Sexlardagi ish jarayonini kuzatar ekanman, mahalliy yoshlarning kasb sirlarini o'rganib, topshiriqlarni a'lo darajada bajarayotganligidan xursandman. Buyurtmachilar tomonidan tayyorlayotgan mahsulotlarimizga hech qanday e'tirozlar kelib tushmayapti.

Nurobod ta'mirlash-mexanika zavodida istiqbolli loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Kelgusida maxsus texnikalar va uskunalar hamda ularning ehtiyot qismlari tayyorlanishi ham mo'ljallanmoqda. Ayni paytda bu yerda ishlab chiqarilayotgan shaxta vagonlari “Zarmitan”, “G'ujumsoy” konlarida ma'dan tashish imkonini kengaytirmoqda.

Nurobod ta'mirlash-mexanika zavodining iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnika va texnologik yangilash, fan-texnika yutuqlarini, innovatsion yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish jadal sur'atlar bilan davom etmoqda.

AVLODLAR ZANJIRI

Nurobodning “ko'ngli” keng, kengayibu yoyilib ketgan. Bu yerlar bahorda yam-yashil tusga kirsada, keyinchalik bahor sog'inchidan rangi sarg'ayib ketadi. Tog' va qirlarining peshonasiga podatuyoqlardan ilon izi yolg'izoyoq yo'llar naqsh bo'lib tushadi. Bu yerda o'tmish va kelajak ruhi uyg'oq kezib yuradi. Ajdodlari chorvador bo'lgan dashtliklar og'ir sanoat texnikalari uchun ehtiyot qismlar va uskunalar yasaydi, o'n yillar davomida ustozlaridan o'rgangan kasb sirlarini shogirdlariga ilinadi. Bu yerda dashtlik sanoatchilar avlodlari zanjiri shu tariqa davom etadi.

Odamlar aqlini shoshiradigan evrilishlar yuz berayotgan O'zbekistonda nurobodliklar kelajakka ishonch bilan yashashmoqda.

Mansur HUSANOV.

■ 2026-yil – Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

– “Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni enggan. Oila – oilaga, qo'shni - qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak. Zero, mahalla tinch-totuv yashasa, butun jamiyatimiz tinch va ahil bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz rivojlanadi” – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida.

Shuningdek, Yurtboshi 2023-yil 26-sentabr kuni mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan videoselektor yig'ilishida ham mahalladagi beshlik tizimi “mahalla yettilligi”ga aylanishini, ularning safiga soliqchi va ijtimoiy xodim ham kiritilishini ta'kidlab, “...Hozirgi tahliklarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi” – deya o'z e'tirofini bildirgan edi.

“Mahalla” – arabcha so'z bo'lib, “joy”, “o'rin”, “makon” ma'nolarini bildiradi. Ya'ni, aholisi bir jamoaga birlashgan, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan shahar yoki tumanning ijtimoiy-hududiy bo'lagi. Shunga monand, mahalladosh, bir mahallalik, bir mahallada yashovchi

tushunchalari ham bor. Mahallalar joylashuviga qarab “past mahalla”, “mahalla guzari” va “yuqori mahalla” kabi hududlarga bo'linadi. Qishloq yoki mahallaning chorrahasidagi choyxona, nonvoyxona, sartaorshxona, go'sht va baqqollik do'konlari bo'lgan obod gavjum joy – guzar deyiladi. Guzar – forsha so'z bo'lib, “o'tish joyi”, “ko'cha”, “mahalla” ma'nolarini anglatadi. Barkamol avlodni tarbiyalashda mahallaning o'rni beqiyos bo'lib, har bir oila uchun katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla ko'zguşida “o'zbekcha turmush tarzi”ning betakror jilosini ko'ramiz.

To'yilar qilish – xalqimizning ezgu niyatlaridan biridir. Bugungi to'y-hashamlar yanada yangilanib, el-yurtimizning oliy udumiga aylangan. Mahalladagi to'y-ma'arakalarga oqsoqol, ya'ni hayotda

ko'pni ko'rgan, kattayu kichikka gapi o'tadigan, el ishonchiga sazovor bo'lgan obro'li kishi bosh bo'ladi. U to'y-ma'arakalar va rasmlar-rusumlarning boshida turadi, o'zining maslahatchilari bilan birga kattayu kichikni boshini qovushtiradi.

Mahallaning toshu tarozisi bor. Bunda xalqimizning yashash tarzi, o'zaro inoqligi va kirdi-chiqdi munosabatlari o'lchanadi. Shunday ekan, har bir ish bamaslahat qilinadi. Kattalar jamoat yumushlarida, to'y-ma'raka va hasharlarda bosh bo'lib, mahalladoshlarni uyush-qoqlikka, o'zaro hurmatga o'rgatadilar. Mahallada kimdir nojo'ya qadam bossa, ko'pchilikka qo'shimlasa, o'zboshimcha hayot kechirsa, oqsoqollar jamoasi tartibga chaqiradi.

Xuddi “Suyunchi” kinofilmda Anzirat buvi va uning o'rtoqlari kasalxonaga otasini ko'rgani bormagan o'g'ilga “...lekinchi, hatto choy ichishga piyolasi ham yo'q, istakonda choy ichyapti... Istakonda?” – deiyshganidek, dashnom beradilar. Yana bir boshqa ko'rinishni eslaylik, unda savdo qoidasini buzgan yigitni adabini berib qo'yadilar. Shunda Xolmat: – “... Tur o'rningdan, kattalar bilan gaplashganda o'rningdan turib gaplash!

Anzirat, ruxsat ber, bir tushiray”. Anzirat xola esa “essiz odam” ma'nosida sotuvchi yigitga qaraydida: “Qo'y Xolmat, kettik” – deydi.

Mahalladoshlar “to'yga yetkazsin”, “o'g'limiz askar bo'lsin”, “hasharda hech bo'lmasa bitta g'isht yoki bir changal loy olib beray”, – deb qo'shnikkiga kirishni odamiylik, yelkasidagi burch, kerak bo'lsa qarz deb biladi. Kasalni yo'qlashni, yaqinidan judo bo'lgan kishiga sabr so'rab yonida turishni hamdardlik, mehribonlik deb butun vujudı bilan his qiladi.

Ayniqsa keksalarni naqshindor so'rida, yumshoq ko'rpachalarda to'y dasturxonı atrofida o'tirishlari va “To'yilar qilib, mahallaga osh berish hammaga nasib etsin”, – deb duo qilishlari bu – millatimiz ko'rki va ziynatidir. “Yoshlar ishga, kattalar oshga” ta'biri bilan aytganda, oqsoqollar maslahati bilan yoshlar yeng shimarib ishga kirishadilar. To'y taraddudlari - joy tayyorlash, dasturxon tuzash, mehmonlarni mulozamat bilan kutib olish mahallaning obro'sidir. Ahil mahalla kuchi bilan to'y-ma'raka va hasharlar ko'tarinki ruhda o'tkaziladi.

Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida,

amerikalik olim bilan suhbatda mahallani shunday ta'riflagan: “...Bizda ayol kishi nobor eridan bezor bo'lsa, advokat chaqirmaydi, sudga bormaydi, mahallaga chiqadi. Mahalladagilar ayol huquqini kamsitmaydi, ammo “qamatib yubor, bunday battolni” demaydi ham. Ayolga jinday sabr qilishni, ikki go'dakning ko'z yoshini oqizmaslikni maslahat beradi. Erkakni chaqirib olib, ayolini tag'in xafa qilsa, begunoh bolalarini “tirik yetim” qilsa, uni mahalladan badarg'a qilib yuborishgacha chora ko'rishini tushuntirib qo'yadi...”.

Bu yerda boshqa izohning hojati yo'q. Odamlarning ruhiyati, yashash tarzi, mavqei bir-biriga o'xshamaydi. Lekin kishi yurish-turishi va mansabu boyligiga qaramasdan, mahalla-ko'ychilik me'yorlariga amal qilib, ko'pchilik fikri va ishiga bosh qo'shadi. Bu albatta har bir mahallaning o'z toshu tarozisi, ya'ni odamlarning madaniyati, mehnat faoliyati va turmush tarziga bog'liq.

“Mehmonjonlardan aylanay” kinofilmi-ni hammamiz ko'rganmiz. Mahalladoshlar kun ora qator-qator bo'lib “nasiba” deb biri meva, biri non olib mehmonga kelishlari, duoi salomlarni yetkazishlari,

shahardagi ishlarini bitirish uchun haddi sig'ib yordam so'rashlari ibratomuz misoldir. Shahardagi mahalladosh esa har safar ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib “Xush kelibsizlar!” – deb kutib olishi, joy berishi tahsinga loyiqdir. Bunday bag'rikenglik va mulozamat ko'rsatish, “qishloqdoshim” yoki “mahalladoshim” deb g'ururlanish yurtimizdagi xokisor odamlarda hali-hanuz saqlanib qolgan.

Bu aytganlarimiz mahalla ummonidan bir tomchi xolos. Mana endi, ayrim do'st-larimiz mahalla nufuziga avval bee'tibor qarashgan bo'lsalar, bundan buyon bilib oladilar. Lekin o'zi bilan o'zi bo'lib yashayotgan kimdir: “bu majburiyimi?”, – deiyishi mumkin. Yo'q, hoy yangi odam! Bu – qadim ajdodlarimizdan meros, bu – qonimizda bor, bu – milliy tarbiyamizdan, gapning indallosi, bu – o'zbekligimizdan.

Lekin unutmashligimiz kerak, mahallada yaxshi-yomon gap yoki nojo'ya qadam, xuddi kinodagidek, “...hoy eshitdilaringmi?” – deyishsa agar, “Mahallada duv-duv gap” bo'ladi. Bu – “qadamingni o'ylab bos” – degani.

G'ofurjon YULDASHEV, faxriy pensioner.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'zining amaliy samarasini bermoqda. Bugun o'g'il-qizlarimizning katta sport sari dadil qadam tashlashi, terma jamoalarimiz safida turib xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etishi va yurt sha'nini ulug'lashida sport maktablarining o'rni beqiyosdir.

SPORT MAKTABIDA CHERMPIONLAR KAMOL TOPADI

Xususan, uzoq yillardan buyon iqtidorli sportchilarni tarbiyalab, turli sport yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoalariga munosib nomzodlar tayyorlab kelayotgan "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport klubi huzuridagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, malakali murabbiylar qo'l ostida shug'ullanayotgan sportchilarning mahoratini oshirish, ularni xalqaro musobaqalarda nufuzli o'rinlarni egallashga tayyorlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Maktab nafaqat viloyat miqyosida, balki respublikada ham o'z o'rni va nufuziga ega bo'lgan sport dargohlaridan biriga aylandi. Shu ma'noda, Bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasining serqirra faoliyati, salmoqli natijalari hamda istiqbolga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyasi haqida batafsil ma'lumot olish maqsadida muassasa direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Zaxira Ro'ziyeva bilan suhbatlashdik:

– Bugungi kunda maktabimizda 20 nafar yuqori malakali o'qituvchi-trenerlar faoliyat yuritib, ular sportning milliy kurash, badiiy gimnastika, yunon-rum kurashi, suzish va sinxron suzish, qilichbozlik, gandbol, futbol hamda boks kabi bir nechta yo'nalishlari bo'yicha yosh avlodni tarbiyalab keltirmoqda. Hozirda ushbu dargohda jami 851 nafar yosh sportchi shug'ullanib, ularning 304 nafari qizlar ekani maktabda xotin-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Asosiy e'tibor yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish va iqtidorli sportchilarni saralab, yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Mashg'ulotlar malakali va tajribali murabbiylar tomonidan zamonaviy metodika asosida olib borilmoqda. Ayniqsa, sportchilarimizni nufuzli musobaqalarga har tomonlama puxta tayyorlashda fidoyi murabbiylarimizning xizmatini alohida e'tirof etish o'riniidir. Jumladan, yunon-rum kurashi bo'yicha Valeriya Ramanova hamda Nodirjon Razzoqov kabi ustozlarimiz g'olib va sovrindor sportchilarni tarbiyalashda chinakam jonkuyarlik namunasini ko'rsatmoqdalar. Ularning mas'uliyatli mehnati, boy tajribasi va yuksak professionalizm yosh avlodning sportda munosib natijalarga erishishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan 2025-yil sport maktabimiz uchun sermahsul, yutuq va zafarlarga boy yil sifatida yodda qoldi. Yil davomida sportchilarimiz o'zlarining iqtidori, tinmay mehnat qilishi hamda ustoz-murabbiylarning fidokorona sa'y-harakatlari natijasida yuksak natijalarga erishdilar. Xususan, 187 nafar sportchi "Ommaviy razradli sportchi", 6 nafari "Sport ustaligi-



ga nomzod", 1 nafari esa "O'zbekiston sport ustasi" yuksak unvoniga ega bo'ldi. Sportchilarimiz viloyat, respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan turli turnir hamda chempionatlarda faol ishtirok etib, jami 182 ta oltin, 104 ta kumush va 94 ta bronza medallarini qo'lga kiritishdi.

Xususan, qilichbozlik sport turi bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida Ruxshona Ibragimova, Sevara Begalova, Elvira Serikboyeva, Parvina Suvonova, Sergey Kadomskiy, Diyor Nazarov, Yakov Em va Aslan Aslanovlar sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdilar. Kattalar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida Emil Kagirov, Aleksandr Pushkin, Kamoliddin Axtamov va Meyrixan Temurovlar oltin medallarga sazovor bo'lishdi. Shuningdek, sportchilarimiz O'zbekiston Kubogi musobaqalari, xalqaro turnir hamda Markaziy Osiyo chempionatlarida ham munosib ishtirok etdilar.

O'zbek xalqining bebaho tarixiy merosi — asrlar davomida mardlik, bag'rikenglik, oliyanoblik va halollik kabi yuksak fazilatlarini o'zida mujassam etgan milliy kurash bugun yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yurtimizda, ayniqsa, milliy sport turlarini ommalashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani bejiz emas. Bu borada yosh avlodning yutuqlari, albatta, quvonarli. Navoiy viloyati va respublika chempionatlarida ishtirok etgan yosh polvonlarimiz sof g'alabalar bilan chempionlik va sovrinli o'rinlarni egallashmoqda. Bu g'alabalar yoshlar qalbidagi ishonchni mustahkamlab, ularni yanada baland marralar sari undamoqda. Birgina o'tgan yili Navoiy shahrida 2008–2010-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Navoiy viloyati chempionati

ana shunday yorqin misollardan biri bo'ldi. Ushbu nufuzli musobaqada Diyorbek Yuldashev o'zining yuksak mahoratini namoyon etib, chempionlikni qo'lga kiritdi hamda respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Keyinchalik u Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida bronza medaliga sazovor bo'ldi. Diyorbek Xorazmda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ham faxrli uchinchi o'rinni egal-

yati yuksak ekanini yana bir bor tasdiqladi. Jumladan, 2008–2009-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida Muhammad Baxtiyrov va Pavel Gordiyenko chempionlik shohsupasiga ko'tarilib, jamoa sharafini munosib himoya qilishdi. 2010–2011-yillarda tug'ilgan sportchilar bahsida esa Muhammad Husniddinov yana bir bor g'alaba qozondi. Yosh bokschilarimizdan Amir Hakimov va Umid Narziyev ham sovrinli

lab, iste'dodli sportchi ekanini isbotladi.

Milliy kurashning ommaviyligi va yoshlar orasidagi nufuzi Jizzax viloyati ochiq chempionatida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. 2011–2019-yillarda tug'ilgan o'smirlarimiz ishtirok etgan ushbu musobaqada mamlakatimizning barcha viloyatlaridan 380 nafar kuchli va umidli yosh polvonlar bellashdi. Ayniqsa sport maktabimiz tarbiyalanuvchilarining ishtiroki diqqatga sazovor bo'ldi. Jumladan, Abdulaziz Baxronov, Sardor Sanjarov, Behro'z Jaloliddinov, Kozimjon Abdullayev, Javlon Allayorov, Og'abek Xolmurodov, Umid Sharipov kabi yosh sportchilar o'z vazn toifalarida sof g'alaba qozonib, birinchi o'rinni egallashdi. Butun hayotini sportga bag'ishlab, yirik musobaqalarda g'alaba qozonish sari tinimsiz intilish har kimga ham nasib etavermaydi. Bu yo'l kuchli iroda, sabr-toqat va yuksak fidoyilikni talab qiladi. Ana shu fazilatlarini o'zida mujassam etgan sportchilarimiz bugun kurash maydonlarida g'alaba qozonishmoqda.

O'tgan yilning iyun oyida bo'lib o'tgan Navoiy viloyati chempionatida 2011–2012-yillarda tug'ilgan kichik o'smir bokschilarimiz o'z salohiyatlarini yaqqol namoyon etishdi. Ringdagi har bir yangi yosh sportchilar uchun iroda va jasorat sinovi bo'ldi. Musobaqalarda Muhammad Husniddinov o'z vazn toifasida ishonchli g'alaba qozonib, chempionlik shohsupasiga ko'tarildi. Miron Yo'lidashev va Amir Hakimovlar esa faxrli ikkinchi o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Alisher Azimov, Umid Narziyev hamda Baxrom Abdunabiyevalar bronza medallarga sazovor bo'lishdi. Yil so'ngida o'tkazilgan navbatdagi viloyat chempionati ham "So'g'diyona" yoshlarining salohi-

o'rinlarni egallab, jamoaning umumiy natijasiga salmoqli hissa qo'shishdi.

Sportning badiiy gimnastika yo'nalishidagi yutuqlar ham alohida e'tiborga loyiq. Mazkur sport turi bo'yicha iqtidorli sportchimiz Gulsanam Amonovanning O'zbekiston chempionatida g'alaba qozonib, "Sport ustasi" unvoniga sazovor bo'lganligi maktabimiz faoliyatidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Boks, yunon-rum kurashi, suzish, futbol, gandbol va badiiy gimnastika sport turlarida o'tgan yilda qator oltin, kumush va bronza medallari qo'lga kiritildi. Gandbol jamoalarimiz viloyat miqyosida mutlaq yetakchilikni egallab keltirmoqda. Futbol bo'yicha o'tkazilgan ochiq birinchiiklarda yosh sportchilarimiz barcha raqiblarini ortda qoldirib, chempionlikni qo'lga kiritib kelishayapti.

E'tiborli jihati shundaki, sport maktabimiz o'qituvchi-murabbiylari sport zallari va mashg'ulotlar jara-yoni bilangina cheklanib qolishmayapti. Ular yozgi sog'lomlashtirish mavsumlarida bolalar dam olish oromgohlarida faoliyat ko'rsatib, yosh avlodning jismoniy sog'lomligi, chinigishi va barkamol voyaga yetishiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Xulosa o'rinda aytish joizki, sport maktabimizda olib borilayotgan keng ko'lamli va maqsadli ishlar Yangi O'zbekistonda sportga, yosh avlod tarbiyasi va kelajagiga qaratilgan yuksak g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir. Bu dargohda tarbiyalanayotgan har bir yosh sportchi ertangi kunda mamlakatimiz sha'ni va g'ururini nafaqat yurtimizda, balki xalqaro arenalarda ham munosib himoya qilishiga shubha yo'q.

Dildora KARIMOVA
suhbatlashdi.



■ O'qing, qiziq

Oltin ming yillardan buyon boylik, moliyaviy qudrat ramzi bo'lib keltirmoqda. Oltin insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi – metallar erasini boshlab bergan, deb hisoblaniladi. U juda nodir va qimmatbaho metallidir. Shuning uchun aynan undan to'lov vositasi sifatida foydalanila boshlangani bejiz emas. Arxeologlar Bolgariyadagi Varna nekropolidan eramizdan 4600 yil avval tilladan ishlangan qadimiy buyumlarni topgan. Shumer tamadduniga oid bir necha ming yillik tilla taqinchoqlar ham tarix dovonlaridan o'tib, bizgacha etib kelgan. Ular insoniyat ko'plab asrlardan buyon oltin bilan muomala qilib kelayotganidan darak beradigan shu turdagi eng qadimiy topilmalardir.

OLTIN HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?



OLTIN TARIXI

Oltin uzoq va murakkab tarixga ega. U ilk davrlardayoq boylik timsoli va qudrat kafolati bo'lgan. Bu qimmatbaho metall qadimiy tamaddun va madaniyat o'choqlarining yemirilishiga, butun-butun xalqlarning qirilib ketishi sababchisidir. Zero, bizning zamonamizgacha bu ko'hna zamin necha ming urushlarni ko'rmadi, deysiz. Mazkur urushlar uchun bahonalarni ham qanchalik ming turli bo'lmasin, barchasining asl maqsadi baribir boylik edi. Shuning uchun ko'p oltiniga ega bo'lish qanchalik muhim va obro'li hisoblanmasin, shunchalik xavfli ham edi. Masalan, o'z davrining eng boy davlatlaridan biri bo'lmish Misr oltini avvaliga ossuriylar, so'ng esa forslar, yunonlar, oxir-oqibat rimliklar qo'lga o'tib ketgan.

■ AU – OLTIN FORMULASI

Turli mamlakatlarda oltin turlicha nomlangan. Misrda u "nub", Mesopotamiyada "xureshu", qadim german xalqlarida "gelo" (nemis va ingliz tillaridagi "gold" so'zi shundan olingan), ya'ni "sariq" deb atalgan.

Alkimyogarlari oltin uchun o'nlab nomlarni o'ylab topgan. Ularning aksariyatida oltin nomi quyoshga bog'liq holda keltirilgan. Shuning uchun oltinning alkimyoviy belgisi quyoshni eslatuvchi belgi – o'rtasida nuqtasi bor doira shakliga mos keladi.

Oltinning umume'tirof etgan, Mendeleev davriy jadvalida keltirilgan "Au" kimyoviy belgisi lotinchadagi "aurum" so'zidan olingan. U "sariq" degan ma'noni bildiradi va so'zsiz mazkur metallning sariq rangi bilan bog'liq.

Oltin ishlov berish juda oson. Uni shunday darajada yuqalashtirish mumkin, hatto orqasidagi narsalarni ko'rsa bo'ladi. G'ayrioddiy tashqi barqarorligi, ya'ni havoda oksidlanmasligi, mavjud kislotalarning aksariyatida parchalanib ketmasligi o'tmish olimlarining uni eng mukammal metall – metallarning shohi, dukan to'xtamga kelishiga sabab bo'lgan.

Ko'plab xalqlarda "oltin qo'llar", "oltin so'zlar", "qora oltin" kabi tushunchalar mavjud. O'zbeklar esa paxtani "oq oltin" deb ataydi. Oltin nodir qadr-qimmat ramzi sifatida maqol va matallar, ertak va qo'shiqlardan joy olgan. Jamiyat uchun foydali bo'lgan ulkan yutuqlar, sportdagi eng yuksak natijalar oltin medallar bilan baholanishi sababi ham shudir.

Davomi bor.
Internet materiallari asosida tayyorlandi.

Фехтование по праву считается одним из самых интеллектуальных и дисциплинирующих видов спорта. Здесь важны не только физическая подготовка и скорость реакции, но и умение мыслить стратегически, сохраняя хладнокровие и уважать соперника. Именно эти качества уже более десяти лет формируются у воспитанников секции фехтования Дворца спорта Навоийского горно-металлургического комбината.

Секция была основана Анисой Петровой в 1998 году, заложившей фундамент системы подготовки, ориентированной не только на спортивный результат, но и на воспитание личности. Сегодня её дело продолжают тренеры Альбина Абдурахмонова, Эмиль Кагиров, Камолiddин Ахтамов и Мадина Мамутова, бывшие воспитанники секции. Под их руководством секция уверенно развивается, расширяется и регулярно подтверждает свой уровень на республиканских и международных соревнованиях.

«Фехтование – это спорт, который не терпит суеты. Здесь нельзя добиться успеха за несколько месяцев. Ребёнок растёт постепенно, через труд, ошибки и постоянную работу над собой», – отмечает тренер Альбина Абдурахмонова.

В настоящее время в секции занимаются около 100 детей и подростков в возрасте от 7 до 17 лет. Все они распределены на 5–6 возрастных групп, каждая из которых тренируется по своей программе и с разной интенсивностью. Для групп здоровья занятия проходят через день, что позволяет детям мягко адаптироваться к нагрузкам, укрепить физическую форму и сохранить интерес к спорту. Спортивные группы тренируются ежедневно – с понедельника по субботу.

По словам тренеров, ключевым принципом работы остаётся индивидуальный подход. «Мы стараемся видеть в каждом ребёнке личность. Кому-то нужно больше



времени, кому-то – больше дисциплины, но самое главное, чтобы сохранялось желание выходить на дорожку», – подчёркивает тренер Камолiddин Ахтамов.

Прошедший сезон стал особенно успешным для юных фехтовальщиков. В декабре в Ташкенте прошли соревнования Центральной Азии, в которых приняли участие спортсмены 2012 года рождения и моложе. В личных соревнованиях бронзовую медаль завоевала София Куячиева, а команды мальчиков и девочек за-

УВЕРЕННЫЕ ВЫПАДЫ К ПОБЕДАМ: УСПЕХИ СЕКЦИИ ФЕХТОВАНИЯ

В течение года воспитанники секции принимают участие в большом количестве стартов, и соревновательный календарь получается весьма насыщенным. По словам тренеров, за сезон команда выезжает примерно на 15 соревнований. В городе Ташкенте 9–10 февраля 2026 года состоялось чемпионат Республики Узбекистана по фехтованию среди спортсменов 2009 года рождения и моложе, где команда девочек вновь завоевала бронзу. Такие соревнования позволяют юным фехтовальщикам набираться опыта, проверять себя в условиях серьёзной конкуренции и постепенно выходить на новый уровень.

Фехтование требует серьёзной материально-технической базы. Экипировка спортсменов включает защитную маску, костюм, гетры, специальную обувь и перчатки. Сама форма служит достаточно долго, однако клинки ломаются часто и нуждаются в регулярной замене. Всё оборудование и инвентарь закупается в Ташкенте. В этом огромная заслуга руководства Фонда «Навоийский горно-металлургический комбинат» и Совета профсоюза комбината. В последнее время секция получила важную поддержку – была выделена современная фехтовальная дорожка и аппаратура, что значительно улучшило условия тренировочного процесса.

За годы работы секция воспитала целую плеяду сильных спортсменов. Сегодня среди воспитанников есть мастер спор-

та и около 10–12 кандидатов в мастера спорта. Многие из них успешно выступают на чемпионатах Азии и других международных соревнованиях. Особую гордость секции составляют Мейрхан Тимуров – чемпион Исламских игр и чемпион Азии, а также Алина Халилова – призёр чемпионата Азии. «Когда наши ученики выходят на международную дорожку и представляют страну, мы понимаем, ради чего работаем», – говорят тренеры.

Сегодня секция фехтования – это не просто место тренировок. Это школа характера, где с ранних лет учат держать удар, мыслить на шаг вперёд и отвечать за каждое принятое решение, уважать соперника, принимать поражения и возвращаться сильнее. Именно в таких условиях формируется настоящий спортсмен, для которого победа – это, прежде всего, результат ежедневной работы над собой.

«Наша самая большая цель – чтобы дети, пройдя через спорт, выходили в жизнь сильными, уверенными и честными. Медали приходят и уходят, а характер остаётся навсегда», – подводит итог Эмиль Кагиров.

С каждым годом секция делает всё более уверенные выпад к новым вершинам. И нет сомнений, что впереди – новые старты, новые пьедесталы и новые имена, которыми ещё не раз будет гордиться узбекское фехтование.

Насиба ШАМУРАТОВА.